

SUG'URTALOVCHILAR FAOLIYATINI REYTING TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Olmosova Munisa Sherxon qizi
talaba, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada sug'urta kompaniyalari faoliyatini reyting tizimi asosida baholash samaradorligini oshirish masalasi o'rganilgan. Shuningdek, sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi kompaniyalarning samarali va ijobiy darjada ish yuritishi va ularning iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlash maqsadida ularning xalqaro reyting agentliklarining reyting baholarini olishidagi bir qancha muammolari tahlil qilinib, ularni bartaraf etish uchun takliflar berilgan.

Аннотация. В данной научной статье рассматривается вопрос повышения эффективности оценки деятельности страховых компаний на основе рейтинговой системы. Кроме того, в целях усиления роли страховых компаний в экономике и эффективной и позитивной работы проанализирован ряд проблем с получением рейтингов от международных рейтинговых агентств и внесены предложения по их устранению.

Abstract. This scientific article examines the issue of increasing the effectiveness of evaluating the activities of insurance companies based on the rating system. In addition, in order to strengthen the role of insurance companies in the economy and to work effectively and positively, a number of problems in obtaining ratings from international rating agencies have been analyzed and suggestions for their elimination have been made.

Kalit so'zlar: reyting baholanish, xalqaro reyting agentliklari, moliyaviy barqarorlik, ishonchlik, likvidlik, to'lov qobiliyati, sug'urta bozori.

Ключевые слова: рейтинговая оценка, международные рейтинговые агентства, финансовая устойчивость, надежность, ликвидность, платежеспособность, страховой рынок.

Key words: rating assessment, international rating agencies, financial stability, reliability, liquidity, solvency, insurance market.

Sug'urta tashkilotlarining samarali va ijobiy darajada faoliyat olib borishi va ularning iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirish, shubhasiz, sug'urta xizmatlarining ommabopligi va jozibadorligiga chambarchas bog'liq. Bunga, faqatgina, sug'urta faoliyatida biznes – jarayonlarni yaxshilash va sug'urta xizmatlari assortimentini kengaytirish orqali erishib bo'lmaydi. Sug'urta xizmatlarining sifatini oshirish va sug'urta qildiruvchilarning talab yuqori bo'lgan yangi sug'urta mahsulotlariga ehtoyojini qondirishda milliy sug'urta kompaniyalarining xalqaro sug'urta bozorlari bilan integratsiyalashuvi, xalqaro reyting agentliklarining reyting baholarini olishi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Biroq, mamlakatimizda sug'urta kompaniyalarining faoliyatini xalqaro reyting agentliklari tomonidan reyting baholanishiga erishish borasida bir qancha muammolar mavjud. Avvalo, milliy sug'urta tashkilotlarining asosiy va moliyaviy

faoliyat bo'yicha ko'rsatkichlari, to'lov qobiliyati, likvidligi, risklarga mos ravishda shakllantirilgan zaxira miqdori xalqaro reyting agentliklari (Moody's Investors Service, Fitch Ratings, Standard & Poor's, AM Best)ning reyting baholash mezonlariga to'liq javob bermaydi. Shuningdek, ushbu xalqaro reyting agentliklarining moliya institutlarining, shu jumladan, sug'urta kompaniyalarining faoliyatini reyting baholash bo'yicha xizmat haqi miqdori, bizning sug'urta kompaniyalarimiz uchun nisbatan qimmat. Bundan tashqari, ayrim sug'urta kompaniyalari rahbarlari xalqaro reytingga ega bo'lishning mohiyati va ahamiyatini hozirgacha to'liq tushunib yetmagan ko'rinadi.

Sug'urta kompaniyalari faoliyatiga xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan reyting bahoning ta'siri, umuman, sug'urtalovchilarning xalqaro reytingga ega bo'lishining zarurligi va ahamiyati ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga jalb etgan. Jumladan, Mike Adams, Bruce Burton va Philip Hardwick o'z tadqiqotlarida moliya bozorining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash va sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini nazorat qilishda reyting agentliklarining roliga yuqori baho berganlar.[1] Sug'urta tarmog'ida bozor operatsiyalarining murakkab texnik tusga ega ekanligi sug'urta qildiruvchilar, investorlar va boshqalarning sug'urta mahsulotlarini sotish nuqtalarida axborotlarning o'tkir asimmetrik xususiyatlariga to'qnash kelishlariga sabab bo'lmoqda. Nazarimda, shu kabi muammolarni bartaraf etishda reyting agentliklari tomonidan berilgan kredit reytingi muhim o'rin tutadi.

Reyting agentliklari tomonidan berilgan reyting bahoning sug'urta faoliyatiga ta'siri haqida Robert W. Klein quyidagi fikrlarni bergan: "Sug'urta tarmog'ida yaqinda kuzatilgan moliyaviy qiyinchiliklar va hayotni sug'urtalovchi yirik kompaniyalarning inchalik muvaffaqiyatli chiqmagan reklamalari ortidan sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holatini baholash bo'yicha reyting agentliklarining faoliyati tez ko'zga tashlanmoqda"[2]. Ushbu muallif sug'urtalovchi reytingining pasayishi uning biznesni ushlab turish qobiliyatiga keskin ta'sir ko'rsatishi mumkin, deb hisoblaydi. Mantiqan o'ylab qaraganda ham xuddi shunday ekanini ko'ramiz. Aslida xalqaro reyting agentliklari sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini reyting baholashni muayyan bir muddatga mo'ljallaydi. Agar, navbatdagi reytingni aniqlash jarayonida sug'urtalovchining asosiy va moliyaviy ko'rsatkichlarida salbiy tendensiya kuzatilgan bo'lsa, tabiiyki, reyting agentligi ushbu kompaniyaning reytingini pasayish tomonga qayta ko'rib chiqadi.

Yuling Wang sug'urta sohasida PhD ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyada sug'urta kompaniyalari faoliyatini xalqaro reyting agentliklari tomonidan reyting baholash masalalarini yoritgan.[3] U o'z dissertatsiyasida moliyaviy reytinglar bilan shug'ullanuvchi A.M. Best, Standard and Poor's va Moody's Investors Service kabi reyting agentliklari sug'urtalovchilarning kredit riskini monitoring qilish va moliyaviy barqarorligiga nisbatan noaniqliklarni pasaytirishda muhim rol o'ynashini alohida e'tirof etgan. Uning fikricha, sug'urtalovchining reytingini oshirish yoki kamaytirish yo'li bilan sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi bilan bog'liq o'zgarishlar to'g'risida

yangi axborotlarni, uni qonuniy tomondan to'lovga layoqatsiz deb e'lon qilishdan oldin e'lon qilinishi davlat va sug'urta iste'molchilari uchun katta ahamiyatga ega.

Sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligi va ishonchligini aniqlash bo'yicha reyting baholanishi ularning moliya bozorida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishining muhim sharti hisoblanadi. Aynan, Anja Theis, Michael Wolgost bu masalaga o'z e'tiborlarini qaratib, sug'urta kompaniyasi aksiya yoki boshqa qimmatli qog'ozlarni moliya bozoriga chiqarish orqali o'zining kapitaliga bo'lgan ehtiyojini qanoatlantirishda xalqaro reyting agentliklari tomonidan taqdim etilgan reyting almashtirib bo'lmaydigan darajada qiymatga ega bo'ladi, degan fikrni ilgari surganlar.[4] Ushbu tadqiqotchilarning fikrlariga qo'shilgan holda shuni ta'kidlash mumkin, sug'urtalovchilar kapital mablag'larga bo'lgan talabni moliya bozoridan qondirmagan taqdirda, ular sug'urta mukofotlari hajmini keskin oshirish orqali moliyaviy holatini yaxshilashi mumkin. Bunga erishishda sug'urta kompaniyasiga xalqaro reyting agentliklarining reytingiga ega bo'lish yetarlidir. Chunki, sug'urta mahsuloti iste'molchilari, ko'proq, yuqori reyting ko'rsatkichlariga ega bo'lgan sug'urtalovchilarning sug'urta mahsulotlarini xarid qilishga moyillik bildiradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda moliya institutlari, shu jumladan, sug'urta kompaniyalari faoliyatini reyting mezonlari asosida baholash bilan mahalliy ahamiyatdagi 3 ta reyting agentligi shug'ullanadi. Ulardan biri 1996-yilda O'zbekiston Banklari Assotsiatsiyasi huzurida tashkil etilgan "Axborot-reyting" kompaniyasidir. Ushbu kompaniya sug'urtalovchilar faoliyatining reytingini aniqlashda quyidagi 2 ta ko'rsatkichga e'tibor qaratadi:[5]

- sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligi;
- sug'urta kompaniyasining to'lov qobiliyati.

Mamlakatimizda sug'urta kompaniyalari faoliyatini baholash orqali ularga reyting beradigan kompaniyalaridan yana biri "SAIPRO" axborot-reyting kompaniyasi hisoblanadi. Ushbu kompaniya 1999-yilda tashkil topgan bo'lib, 2004-yildan boshlab sug'urtalovchilarning reytingini aniqlash bilan shug'ullanib keladi[6]. Mazkur kompaniyaning sug'urtalovchilarning reytingini aniqlash metodikasi bo'yicha sug'urta faoliyatiga oid ko'rsatkichlar alohida, moliya faoliyatiga oid ko'rsatkichlar alohida tahlil qilinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash kerakki, sug'urta sektoridagi mavjud muammolar sug'urta kompaniyalarining xalqaro reyting agentliklari tomonidan reyting baholarini olishlariga yetarli sharoit yaratmayapti. Biroq, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan tarmoqni tizimli rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor kelgusida mazkur sektorni iqtisodiyotning ilg'or tarmoqlaridan biriga aylanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Milliy sug'urta kompaniyalari tomonidan nufuzli xalqaro reyting agentliklari (Moody's Investors Service, Fitch Ratings, Standard & Poor's, AM Best)ning reytingini olish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- sug'urta kompaniyalarining yuqori kapitallashuv darajasiga erishish, buning uchun investitsiyalarni jalb etish, ularning sug'urta qildiruvchilar, naf oluvchilar va

sug'urta, birgalikda sug'urta va qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha boshqa sug'urtalovchilar oldidagi joriy va kelgusidagi majburiyatlarni bajara olish qobiliyatini oshirish;

- biznes-modelni transformatsiya qilish hisobiga xarajatlarni optimallashtirish va rentabellik darajasini oshirish, sug'urta va investitsiya portfelining yuqori sifatini ta'minlash va diversifikatsiyalash;

- turli risklarni hisobga olgan holda yetarli sug'urta zaxiralarini shakllantirish orqali to'lov qobiliyatini mustahkamlash, sug'urta kompaniyalarining risk-menejment tizimini sifatni boshqarishning zamonaviy standartlariga muvofiqlashtirish;

- sug'urta faoliyati turlari bo'yicha zararlilik ko'rsatkichini muntazam tahlil qilish orqali sug'urta operatsiyalarining samaradorligini oshirish, axborot texnologiyalari tizimini to'liq modernizatsiya qilinishini ta'minlash.

Xulosa o'rniida, sug'urta tashkilotlari tomonidan Moody's Investors Service, Fitch Ratings, Standard & Poor's, AM Best kabi xalqaro reyting agentliklarining reytingini olishlari bo'yicha ishlab chiqilgan takliflarning amaliyotga joriy etilishi umuman milliy sug'urta bozorining, xususan sug'urta kompaniyalarining xalqaro sug'urta bozorlaridagi obro'si va nufuzining oshishiga, sug'urtalovchilarning rivojlangan davlatlarning sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlik qilish imkoniyatining kengayishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida sug'urta mahsuloti iste'molchilarining xalqaro reytingga ega bo'lgan sug'urtalovchilar va ularning mahsulotlarini xarid qilishga bo'lgan qiziqishining ortishiga, xorijiy va mahalliy investorlarning sug'urta sohasiga investitsiya kiritishlari bo'yicha tashabbuslarini rag'batlantirishga hamda sug'urta kompaniyalarining sug'urta faoliyatini rivojlantirish, mijozlar sonini oshirish va shu orqali moliyaviy barqarorligi hamda ishonchliligini ta'minlashga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mike Adams, Bruce Burton, Philip Hardwick. The Determinants of Credit Ratings in the United Kingdom Insurance Industry, <https://doi.org/10.1111/1468-5957.00007>. Journal of business finance & accounting, United Kingdom. Volume 30, Issue 3D4, April 2003, Pages 539-572. <https://onlineibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/1468-5957.00007>.
2. Robert W. Klein. Insurance Company Rating Agencies: A Description of their Methods and Procedures. DOI: 10.13140/RG.2.2.32522.06088. Project: Insurance Solvency Regulation Georgia State University (1992).
3. https://www.researchgate.net/publication/316317052_Insurance_Company_Rating_Agencies_A_Description_of_Their_Methods_and_Procedures.
4. Yuling Wang. Two Essays on Property-liability Insurer Rating Transitions. Florida State University, College of Business. A Dissertation submitted to the Department of Risk Management/Insurance in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy (2009).

[https://fsu.digital.flvc.org/isiandora/object/
fsu:175809/DataStream/PDF/view](https://fsu.digital.flvc.org/isiandora/object/fsu:175809/DataStream/PDF/view).

6. Theis A., Wolgast M. Regulation and Reform of Rating Agencies in the European Union: An Insurance Industry Perspective. Geneva Pap Risk Insur Issues Pract 37, 47-76. (2012). <https://doi.org/10.1057/gpp.2011.33>.
<https://link.springer.com/article/10.1057/gpp.2011.33#citeas>.
7. Рейтинги финансовой устойчивости страховых компании (2020).
<http://ahbor-reyting.u2.ru/rating/>
8. Методика определения рейтинга страховщиков (2020).
<https://insurance.uzreport.uz/cgi-bin/main.cgi?raz=13&lan=r>.